

TARIXIY XOTIRA BEQIYOS

Qalandarova Xadichabonu Ravshan qizi

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi talabasi

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 21.05.2026

Revised: 22.05.2026

Accepted: 23.05.2026

KALIT SO'ZLAR:

prokuror, huquq, adolat, qatag'on qurbonlari, tarix, xotira, siyosat, sud, reabilitatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi xodimlari hamkorligida tayyorlangan va nashr etilgan "Tarixiy xotira beqiyos" kitobining qisqacha mazmuni haqidagi qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Maqolada istiqloлга qadar faoliyat olib borgan va qatag'on qurbonlari bo'lgan 40 nafar prokuraturaning fidoyi xodimlarining hayot yo'llari yoritilgan. Maqola bilan tanishish jarayonida o'quvchi mazkur kitob qahramonlarining shonli hayot yo'lida ko'plab ta'qiblarga uchragani va shunga qaramasdan ularning Vatanga sadoqat bilan qilgan fidokorona xizmati kelajak avlod uchun naqadar ibratli ekanini anglab yetadi.

Bugungi kunda tarixiy xotirani tiklash va qatag'on qurbonlari hamda ularning hayot yo'llarini o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu borada muhim ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, davlat rahbari tomonidan 2023-yil 31-avgustda "Shahidlar xotirasi" xiyobonida qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ularning pok nomini tiklash va tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarish bo'yicha berilgan konseptual topshiriqlar doirasida Bosh prokuror farmoyishiga asosan 300 dan ortiq mutaxassislarni jamlagan ishchi guruh tomonidan "Tarixiy xotira beqiyos" kitobi yaratilgan. Mazkur kitob O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi tarixida qatag'on yillarida nohaq ayblanib sudlangan, ayrim hollarda sud qarorini ham kutmay o'limga mahkum etilgan prokuratura xodimlari haqida bizga ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish bilan bir qatorda, ularning yaqinlari boshiga tushgan kulfatlar va iztiroblari haqida ham so'zlaydi. Shu bilan bir qatorda o'sha davrda hukmron bo'lgan sobiq sovetlar tuzumining shovinistik siyosati qurbonlariga aylangan ajdodlarimizning biz bilmagan hamda qisqa umri davomida adolat uchun kurashib, hatto o'z jonini fido qilgani bilan bog'liq hayot yo'llari haqida bayon qiladi.

Zamonaviy tarixshunoslikda "Katta terror" deb nomlangan sobiq SSSRda sodir bo'lgan 1937–1938 yillardagi ommaviy siyosiy qatag'onlarning asosiy sababi nima degan savolga hozirgi kungacha yagona fikr mavjud emas. Tarixchilarning asosiy qismi ushbu qatag'onlarni tashkil etish va amalga oshirishni shu davrda mamlakatni boshqargan Iosif

Stalin nomi bilan bog'lashadi. Siyosiy qatag'onning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– Aholining majburiy mehnatga jalb qilish, ularning ongiga deyarli haq to'lanmaydigan asoslarda ishlash g'oyasini singdirish; shaxsga sig'inish rejimini saqlab qolish vositasi; totalitar jamiyatni yana mustahkamlash va birlashtirish zarurati. Sobiq SSSR da 1937-yilning 23-fevralidan 5-mart kuniga qadar Butunittifoq Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining Plenumi bo'lib, unda nutq so'zlagan I.V.Stalin "sovet davlatining eng asosiy dushmanlari sifatida trotskiychilarni e'lon qildi va ular uning fikricha, "... hech qanday prinsiplarga ega bo'lmagan, g'oyasiz zararkunandalar, buzg'unchilar, josuslar, qotillar..." deb ataldi.

Bir so'z bilan aytganda, shu davrda istalgan bir shaxs "chaqiruv xati"ga asosan tuhmat va bo'hton bilan "xalq dushmani" deb topilishi va soxta ayblov va dalil sifatida faqat o'zining "iqrorlik ko'rsatmasi" asosida og'ir jazoga hukm etilishi mumkin edi. Oila a'zolari esa umrining oxiriga qadar "xalq dushmani"ning oila a'zosi sifatida nadomatda o'tishi mumkin edi.

O'rinli savol tug'iladi, nima maqsadda oila a'zolari ham qatag'on qilindi? Fikrimizcha, bundan ko'zlangan asosiy maqsad, repressiya qilingan shaxsning oila a'zolari, balki u bilan yaqin bo'lgan shaxslarni ham "aybdor" bilan bir xil jazoga tortish orqali, jamiyatda sovetlarga qarshi, xalq dushmani deb topilganlarga nisbatan nafrat tuyg'usini uyg'otish, qo'rquv iskanjasida o'zining hayotini saqlab qolish uchun do'stlarini, qo'shnisini, hatto yaqinlarini ham sotishgacha borishi oqibatda esa ularning bir tomondan tuzum siyosatining qurboniga, ikkinchi tomondan uning bir bo'lagiga aylantirishga erishish edi.

Aytish joizki, yurtimizning ko'p ming yillik tarixida qora dog' bo'lgan davrlar ham borki, bu davrlarning o'z qahramonlari, ya'ni yurtning, xalqning ertasini, buyuk kelajagini ko'ra olgan, kerak bo'lsa yurtning yorqin kelajagi uchun o'zini qurbon qilgan, oqimga qarshi bo'lsada faqat haqiqat tarafida tura olgan xalqparvar, ma'rifatparvar, vatanparvarlari bor. Iftixor va sharaf bilan ayta olamizki, shu kabi insonlar orasida xalq manfaatini, millat sharafini barcha narsadan ustun qo'ygan sharafli kasb egalari – prokurorlar ham bor. Biz tilga olayotgan kitobimiz aynan shu qahramonlar haqidadir.

Noodatiy hamda har qanday kishining e'tiborini tortadigan kitob muqovasida nega aynan "Martlet" qushi tasvirlangan? Uning qatag'onga uchragan prokuratura xodimlariga qanday aloqasi borligi barchamiz uchun qiziq. Tikanli simlar domiga tushib qolgan "Martlet" qushini tasvirlash orqali mamlakatimiz prokuraturasi tizimida vijdonan va halol xizmat qilgan, yuksak shaxsiy professional salohiyati bilan qisqa fursatda ulkan ishlarni amalga oshirgan, ammo fidokorona mehnati sobiq mustabid tuzumda qadr topmagan, aksincha, zug'umkor qatag'on siyosatining "tikanli simlari" iskanjasida qolgan va shunday bo'lsa-da yuksaklikka ramziy ma'noga ega bo'lib, u qatag'on qurboniga aylangan, ammo baribir yuksaklikka intilgan xalqimizning fidoyi farzandlariga ishora qilingan.

Sovet davlatchiligi siyosiy qatag'onlari boshqa ko'plab soha vakillari qatori, jamiyatda qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolati berilgan, prokuratura organlari xodimlarini ham chetlab o'tmadi, ular ham qatag'on siyosati mexanizmining bir qismiga aylantirildi. Qanday omillar aynan prokuratura organlari xodimlarining qatag'on jarayonlarida nishonga aylanishiga sabab bo'lgan?

Mening tahlillarim va mavzu doirasida olib borgan izlanishlarim natijasiga ko'ra, prokuratura organlari xodimlarining qatag'on siyosati qurboniga aylanishida bir qator siyosiy va institutsional omillar muhim o'rin tutgan. Avvalo, mazkur soha vakillari yuqori huquqiy bilimga, mustaqil fikrlash qobiliyatiga va jamiyatda muayyan ta'sir doirasiga ega bo'lgan qatlam sifatida namoyon bo'lgan. Ular qonun ustuvorligi, adolat tamoyillari va huquqiy tartibni ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni bajargani sababli, mavjud siyosiy rejim uchun ehtimoliy xavf sifatida qabul qilingan. Totalitar boshqaruv sharoitida mustaqil dunyoqarashga ega, tanqidiy fikr yuritish imkoniyatiga erishgan va atrofdagi shaxslarga ta'sir ko'rsata oladigan kadrlar hokimiyatning mutlaq nazoratiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida baholangan. Shu nuqtai nazardan, prokuratura xodimlarining repressiyaga uchrashi nafaqat muayyan shaxslarni jazolash, balki huquqiy ongga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamni zaiflashtirishga qaratilgan siyosiy strategiyaning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, aholining bilimli va huquqiy madaniyatni yuqori qismiga nisbatan bosim o'tkazish orqali jamiyatni boshqarishni yengillashtirish, ehtimoliy norozilik harakatlarining oldini olish hamda omma ongida qo'rquv muhitini shakllantirish maqsadi ko'zlangan. Qatag'on jarayonlari orqali hokimiyat nafaqat jismoniy jazolash usulidan foydalangan, balki jamiyatda itoatkorlik, bo'ysunuv va siyosiy qo'rquv psixologiyasini qaror toptirishga intilgan. Bu esa, o'z navbatida, davlat apparatining ta'sir doirasini kengaytirish va totalitar tuzum barqarorligini saqlab qolish mexanizmi sifatida xizmat qilgan.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarning amaliy dalili sifatida Is'hoq G'oziev, Mukomil Burxonov, Abdurahim Yusufzoda, Muhammadjon Mo'minov kabi xalqparvar prokuratura xodimlarining ayanchli va ibratli hayot yo'llarini olsak bo'ladi.

Kotiblikdan Turkiston Bosh prokurorigacha bo'lgan o'sha mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan hamda bu yo'lda hatto o'z jonini ham fido qilgan qahramonimiz sobiq O'ZSSR birinchi Adliya xalq komissari **Is'hoq G'oziev**dir. U 1896-yil Farg'ona viloyatining Marg'ilon shahrida tug'ilgan. 1924-yil TASSR Adliya xalq komissari va respublika Bosh prokurori sifatida ish boshlagan. Ammo taqdir taqozosi va qatag'on siyosatining natijasida 1927-yil 6-aprelda lavozimidan ozod etiladi.

1937-yil "Milliy Ittihad" a'zosi sifatida ayblanib, qamoqqa olinadi va unga 5 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi beriladi. Unga qo'yilgan ayblovlarni tan olmaydi, ammo bu hech narsani o'zgartirmas edi. Sababi, o'sha davrda hukumat vakillari o'z ishini sidqidildan bajarayotgan malakali kadrlarni turli xil bo'hton va tuhmatlar bilan ayblab egallagan lavozimidan ozod qilish yo'lida inson zoti qila olishi mumkin bo'lgan barcha

qabih ishlarni amalga oshirgan. G'oziev 1950-yilda Krasnoyarskga surgun qilinadi va 1956-yilda oqlanadi.

Yana bir o'z kasbining fidoyi xodimlaridan biri, o'z davrining adolatli prokurori, jadidchilik faoliyatining ma'lum ma'noda davomchisi sifatida tanilgan Buxoro Respublikasi ilk Adliya noziri, respublika prokurori **Mukomil Burxonov**dir. "Tarbiyai atfol" yashirin jamiyati uning maktabini o'z qaramog'iga oldi. 1912-yilda Ismoil Gaspirali, Abduqodir Shakuriy maktablariga qiyosan o'z uyida yangi usuldagi maktabni, 1913-yilda esa katta yoshli savodsiz hamda chalasavodlar uchun kechki maktablar tashkil qiladi. 1917-yilda Said Olimxon manifest e'lon qilishi va undan keyin jadidchilarning quvg'in ostiga olinishi sababli Kogon shahriga qochishga majbur bo'ladi.

Navbatdagi qatag'on qurboni bo'lmish Abdurahim Yusufzoda islohotchi prokuror nomi bilan atalishi bejizga emas. Sababi uning tashabbusi bilan Buxoroda 3 ta sud binosi ochiladi va faoliyat yuritadi, birinchi marta apellyatsiya organi – "Taniz mahkamasi" ("Arz mahkamasi") tashkil etilgach, har uch oyda bir marotaba majlis o'tkazilar hamda unda aholining shikoyatlari ko'rib chiqilar edi. Buxorodagi qadimiy yodgorliklar hibsxona sifatida foydalanilishini oldini olish maqsadida Buxoro madaniyat muzeyi tashkil etilishi tashabbuskorlaridan biri Abdurahim Yusufzodadir. Sudlov organlari faoliyatida ichki nazoratni kuchaytirish uchun Adliya nozirligi qoshida "Hukm nazorati" maxsus bo'limi tashkil etiladi. Ushbu serqirra shaxsning yana bir tashabbuskor ishlaridan biri Buxoroda 17 ta tarixiy obidani ta'mirlatganidir. XX asrning birinchi choragida amalga oshirilib kelinayotgan islohotlardan yana biri 1924-yilda Moskvada rus va o'zbek tillarida "Buxarskaya jizn" jurnali chop etilishi bo'ldi. Bundan tashqari, O'zbekistonda ilk kinostudiya – "Buxoro-Rus kinojamiyati" tashkil etiladi. 1924-yilda "Dobrolyot" havo floti bilan shartnoma tuzilishiga erishadi va Buxoro-Xiva-Toshkent-Almati yo'nalishida havo qatnovi va pochta yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, uning tashabbusi bilan "Yunkers" firmasidan 6 ta samolyot xarid qilinadi.

Xotin-qizlar huquqlarining himoyasi tarafdori, jamiyatda adolat hamda tenglik ta'minlanishi uchun xizmat qilgan Ahmadbek Mavlonbekov tashabbusi bilan 1928-yilda respublika prokuraturasi qoshida ayollar huquqlarini himoya qiluvchi maxsus bo'lim tashkil etiladi. U ko'plab shu kabi loyihalar tashabbuskori edi, ammo u paytda bunday iste'dod egalari turli xil tuhmat va bo'htonlar bilan darhol ayblanib, hibsga olinar, ularning ba'zilari Uzoq Sharq mamlakatlariga surgun qilinsa, yana ba'zilari otuvga mahkum qilinadi. U ham 1930-yilda soxta jinoiy ish bo'yicha hibsga olinadi. 1938-yilda Dushanbe (Tojikiston)da otib tashlanadi.

Yosh huquqshunos, o'z sohasining yetuk mutaxassisi Muhammadjon Mo'minov 1903-yilda Namanganda tug'ilgan. "Ko'mak" tashkiloti tashabbusi bilan Turkistondan bir guruh yoshlar Germaniya davlatiga, Moskva, Leningrad va Boku shaharlariga o'qishga yuborilganda u ham shu yoshlar qatorida bo'lib, 1923–1924 yillarda Moskva davlat universitetining huquq fakultetida tahsil oladi. Keyinchalik u Sovet qurilishi va huquqi ilmiy

tekshirish instituti direktori hamda Sovet huquqi institutida fakultet dekani sifatida faoliyat yuritib, ko'plab yetuk huquqshunos kadrlarni tayyorlaydi. Mashhur huquqshunos olimi Xadicha Sulaymonova va akademik Soli Rajapov uning ilmiy maktabi vakillari hisoblanadi. 1937-yilda qatag'on davrida uning uyida tintuv o'tkazilib, Muhammadjon Mo'minov hibsga olinadi. Qiynoqlar ta'sirida aybini "tan olishga" majbur bo'ladi va 1938-yilda "uchlik" qarori bilan otuvga hukm qilinadi. Besh kundan keyin ukasi Inomjon ham otib tashlanadi. Uning rafiqasi Diloru Yusupova (asl ismi Dinara) ham qatag'on qurboni bo'lgan matonatli ayol edi. U siyosatchi Sobirjon Yusupovning qizi bo'lib, 1922-yilda Moskvaga o'qishga yuboriladi va shu yerda Muhammadjon Mo'minov bilan tanishib, oila quradilar. 1937-yilda turmush o'rtog'i hibsga olingach, u ham tuhmatlar bilan qamaladi, ikki farzandi bolalar uyiga joylashtiriladi. 1939-yilda uning ishi qayta ko'rib chiqilib, to'xtatiladi va u ozodlikka chiqadi. Keyingi hayotini farzandlarining tarbiyasiga bag'ishlaydi. Haqiqat egiladi, bukiladi ammo sinmaydi... 1956-yilda Diloru Yusupovning arizasiga ko'ra Muhammadjon Mo'minov ishi qayta ko'rib chiqilib, uning hech qanday aybi yo'qligi aniqlanib, haqiqat yuzaga chiqqach, 1957-yilda to'liq oqlanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tarixiy xotirani mustahkamlash hamda qatag'on siyosati oqibatlarini chuqur o'rganish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. **Tarixiy-huquqiy ongni shakllantirish tizimini rivojlantirish.** Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda Bosh prokuratura muzeyiga yoshlarning tashrifini tizimli ravishda tashkil etish orqali ularning huquq tizimi tarixi haqidagi bilimlarini kengaytirish, shuningdek, tarixiy merosga nisbatan hurmat va milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish zarur.

2. **Repressiya qurbonlarini rehabilitatsiya qilish mexanizmlarini takomillashtirish.** Qayta ko'rib chiqilmagan qatag'on qurbonlari bilan bog'liq jinoyat ishlarini aniqlash, ularni huquqiy jihatdan qayta baholash hamda rehabilitatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha institutsional choralarni kuchaytirish lozim.

3. **Yuridik ta'lim tizimiga maxsus fan/modullarni joriy etish.** Yuridik ta'lim muassasalarida tarix fanlari tarkibida "Siyosiy repressiyalar tarixi" yo'nalishini joriy etish, unda real kazuslar asosida sud xatolari va ularning huquqiy oqibatlarini tahlil qilish orqali talabalarining tanqidiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

4. **Elektron arxiv tizimini rivojlantirish.** Tarixiy-huquqiy hujjatlarni raqamlashtirish hamda elektron arxiv tizimini kengaytirish orqali tadqiqotchilar uchun ochiq, qulay va tizimli axborot bazasini shakllantirish zarur.

5. **Ilmiy-ma'rifiy targ'ibotni kuchaytirish.** Qatag'on siyosati mavzusida hujjatli filmlar yaratish, ochiq ma'ruzalar, seminar va davra suhbatlarini tashkil etish orqali jamiyatda tarixiy xotira va huquqiy ongni mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot ishlarini kengaytirish lozim.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, sovet totalitar tuzumi, shaxsga sig‘inish davri qurbonlari bo‘lgan prokuratura organlarining xodimlari haqidagi tarixiy haqiqatlarni ochish, ularning nomlarini oqlash orqali nafaqat ularning oldidagi burchimizni ado etish, balki Yangi O‘zbekiston, mustaqil davlatimizda faoliyat yuritayotgan kelajak avlod uchun shukronalik hissini uyg‘otish, Vatanga muhabbat, yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi kabi sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik hissini tuyish, yakunida davr siyosati qurboni bo‘lgan hamkasblarimizning ruhi taskin topishiga, nomlari oqlanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsak, niyatimiz xolis va savobli amalni bajargan kabi qalbimizda qoniqish hissini tuyamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi – “Tarixiy xotira beqiyos” kitobi – Toshkent: ENCYCLOPEDIA WORLD 2024.
2. Akbarov Sh. “Men o‘zbekman” – tarixiy-hujjatli roman – Toshkent: Navro‘z, 2018.
3. Qandahorova D. 1937-1938 yillar siyosiy qatag‘onlari: “Katta terror fojeasi” – “Huquq” gazetasi №19, 2024.
4. “Stalin repressiyalari” // Wikipedia, https://ru.wikipedia.org/wiki/Сталинские_репрессии